

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024 1-SON**  
**ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA**

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.G'.Mo'minov, X.O.Abdinazarova</b>	
Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari .....	144
<b>M.O.Gopirov</b>	
Изменения в территориальной структуре автомобильной промышленности США .....	148
<b>Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev</b>	
Ershi shahrining yuzaga kelishi va rivojlanishda geomorfologik omillarining o'rni va ahamiyati .....	153
<b>K.M.Mahmudov, X.T.Egamberdiyev, G.X.Xolbayev, S.M.Muminova</b>	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo harorati hamda atmosfera yog'inlarining o'zgarishini baholash (Andijon viloyati bo'yicha) .....	157
<b>O.I.Abdug'aniyev, Z.I.Mamirova, N.A.Ahmadjonova</b>	
Yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslash.....	167
<b>A.M.Toshpo'latov, Sh.Z.Jumaxanov</b>	
Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari .....	172
<b>D.R.Eshmirzayev, G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev</b>	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini baholash (Samarqand viloyati misolida) .....	180
<b>E.G'.Mahkamov, Sh.Sh.Hakimova</b>	
Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlarini .....	186
<b>Y.I.Ahmadaliyev, B.S.Tojiddinov, X.I.Saidova</b>	
Yer resurslarini majmualari tadqiq etishga geografik yondashuvning zarurati.....	190
<b>N.O'.Komilova</b>	
Etnoekologik tadqiqotlarning ijtimoiy-geografik yo'nalishlari va bosqichlari.....	195
<b>Y.I.Ahmadaliyev, P.S.Otaqulov, A.E.Madraximov</b>	
Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o'rni va ahamiyati.....	199
<b>Z.A.Temirov, D.A.Turg'unboyeva</b>	
Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri.....	206
<b>O.I.Abdug'aniyev, M.M.Qahhorova</b>	
Tayanch ornitologik hududlarini muhofaza qilishning ekologik-geografik jihatlarini.....	212
<b>M.M.Atajonov</b>	
Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ba'zi bir masalalari .....	217
<b>A.A.Isayev, S.A.Ergashev</b>	
Andijon viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sikilli ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish .....	220
<b>M.N.Dehqonboyeva, M.R.Mahammadova</b>	
Farg'ona viloyatida yo'ldosh shaharlar loyihasining ayrim jihatlarini .....	224
<b>D.M.Abduraxmonov</b>	
Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	230
<b>D.B.Kosimov</b>	
Chegara hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining nazariy asoslari .....	234
<b>H.N.Naimov</b>	
Landshaftlarni kartalashtirish va ulardan foydalanish masalalari (Shimoliy Farg'ona misolida) .....	239
<b>M.H.Otamirzayeva</b>	
Daryo havzasi landshaftlarining strukturasi va funksiyasini shakllantiruvchi tabiiy, biologik va ijtimoiy tizimlar .....	243
<b>U.Sh.Uktamov</b>	
Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari.....	248
<b>S.M.Xudoyberdiyeva</b>	
Talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rni.....	252
<b>T.D.Komilova</b>	
Hududlarning ekologik karkasini rejalashtirishda landshaft yondashuvidan foydalanish .....	257

## FARG'ONA VILOYATIDA YO'LDOSH SHAHARLAR LOYIHASINING AYRIM JIHLTLARI

## НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ПРОЕКТА «ГОРОДА СПУТНИКИ» В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

## SOME ASPECTS OF THE "SATELLITE CITIES" PROJECT IN THE FERGHANA REGION

Dehqonboyeva Mavluda Nosirjonovna<sup>1</sup><sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, geografiya kafedrasida katta o'qituvchisiMahammadova Mahbubaxon Rahmiddin qizi<sup>2</sup><sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, geografiya yo'nalishi 2-kurs talabasi**Annotatsiya**

Maqolada aholi sonining tez sur'atlarda o'sib borishi va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatining rivojlanib borishi bilan jamiyatda shaharlar to'ri va zichligi kengayib borishi masalalari atroflicha yoritilgan. Mazkur jarayonlarda shahar demografik yukining ortishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar ularning demografik yukini kamaytirish orqali amalga oshirilishi ustuvor ahamiyat kasb etishi tushuntirilgan. Shuning maqolada Farg'ona viloyati shaharlari misolida yo'ldosh shaharlarni tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati taxlil etilgan.

**Аннотация**

В статье подробно освещены проблемы быстрого роста населения и развития социально-экономического положения страны, расширения сети и плотности городов в обществе. В этих процессах пояснялось, что риски, которые могут возникнуть в результате увеличения демографической нагрузки города, должны быть реализованы за счет снижения ее демографической нагрузки. Поэтому в статье анализируется социально-экономическая значимость организации городов-спутников на примере городов Ферганской области.

**Abstract**

The article covers in detail the problems of rapid population growth and the development of the socio-economic situation of the country, expansion of the network and density of cities in society. These processes clarified that the risks that could arise from increasing the city's dependency ratio should be addressed by reducing its dependency ratio. Therefore, the article analyzes the socio-economic significance of the organization of satellite cities using the example of cities in the Fergana region.

**Kalit so'zlar:** urbanizatsiya, shahar aglomeratsiyasi, demografik yuk, aholi soni, shaharlar qulayligi, eko shahar.

**Ключевые слова:** урбанизация, городская агломерация, демографическая нагрузка, население, удобство городов, экогород.

**Key words:** urbanization, urban agglomeration, demographic burden, population, convenience of cities, eco-city.

**KIRISH**

Aholi punktlari kishilarning doimiy yashaydigan, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadigan va ularni iste'mol qiladigan ijtimoiy hayot markazidir. Aholi punktlari iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot markazi bo'lishi bilan birga, ular hududning ushlab turuvchi tayanchdir. Shuning uchun ham azaldan aholi punktlari ko'pgina fanlarning, shu jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o'rganish obyekti va predmeti bo'lib kelgan.

Kishilik jamiyati fan va texnikaninig imkoniyatlaridan foydalanib, o'zi yashaydigan maskanlarni tobora kengaytirmoqda. Bu jarayonda hududlarning tabiiy landshaft imkoniyatlari to'liq hisobga olinmasligi aholi punktlarida ijtimoiy-ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish dasturining 11-maqсадida "Shaharlar va aholi punktlarining ochiqligini, xavfsizligini, umri boqiyiligi va barqarorligini ta'minlash"<sup>14</sup> vazifalarini yechish dolzarbligi ta'kidlanmoqda. Mazkur vazifalar, demografik yuki og'ir bo'lgan hududlarni o'zgarishini tahlil etish, baholash, bashoratlash va salbiy holatlarni oldini olish bo'yicha tadqiqotlarni taqozo etadi.

Jahonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga, jumladan aholi punktlari demografik vaziyatini optimallashtirish, shaharlarning antropogen bosimini me'yorlashtirish, shaharlar demografik vaziyatini optimallashtirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

<sup>14</sup> Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года. [www.uz.undp.org/content/uzbekistan/ru/](http://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/ru/)

Mamlakatimizda keying paytlarda shaharlar demografik yukini og'ishi kuzatilmoqda, yani yo'ldosh shaharlar loyihalari ishlab chiqilib amalga tadbiiq etilmoqda. Bu esa birinchi navbatda shahar atrofi hududlarini rivojlanishiga, shaharlar maydonining kengayishiga olib kelsa, ikkinchidan ularning demografik yukini kamayishiga olib kelishi kutilmoqda. Mazkur jarayonlarda shaharlarning muvozanatini saqlashda har bir mintaqani o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olish, demografik yuk miqdorini belgilash, me'yorlashtirish, aholi punktlarini oqilona hududiy tashkil etish ishlariga katta ahamiyat berilishi lozim.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Shaharlar va ularni hududiy majmualari bo'yicha MDH mamlakatlarida keng ko'lamdagi tadqiqotlar olib borilgan. Bu xususda, eng avvalo, N.N.Baranskiy, D.I.Bogorad, A.P.Buryan, V.G.Davidovich, V.SH.Djaosvili, O.A.Konstantinov, G.M.Lappo, YE.YE.Leyzerovich, F.M.Listengurt, I.M.Mayergoyz, N.I.Naymark, YE.N.Persik, Y.G.Saushkin, B.S.Xorev kabi olimlar katta ishlarni bajarishgan. Aynan cho'l shaharlari masalalari bilan xorij mamlakatlarida L.Abubakar (Niger), X.G.Menshing (GFR), S.Murtazo (Afg'oniston), B.Orazmuradov va A.Botirovlar (Turkmaniston) tadqiqot olib borganlar.

O'zbekistonda shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganish bo'yicha O.B.Ata-Mirzayev, E.A.Axmedov, T.I.Raimov, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, T.N.Mallaboyev, N.M.Mamatqulov, Z.H.Rayimjonov, Z.T.Abdalova, S.S.Zokirov va boshqa mutaxassislar shug'ullanishgan. Bevosita arid hududlar shaharlari bo'yicha Sh.B.Imomov nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan (1983). Shuningdek, cho'llar aholisi va iqtisodiyotining ba'zi masalalari Z.M.Akramov, Sh.Zokirov, S.Islomovlar tomonidan o'rganilgan, A.Soatov "O'zbekiston tabiiy sharoitini shaharsozlik maqsadida tahlil qilish" mavzusida (1993) o'zining nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Respublikamizda ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli chora tadbirlar olib borilmoqda. Aholining mintaqalar bo'yicha hududiy tashkil etilishini optimallashtirish, hayot sharoitlarini yaxshilash, iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PF-5467-sonli "Obod mahalla" dasturi to'g'risida Farmoniga muvofiq mahallalarni obodonlashtirish va keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarini barcha hududlarda amalga oshirish orqali aholi uchun munosib sharoitlar yaratish va ularning turmush madaniyatini yanada yuksaltirish hamda rivojlantirish mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Aholi joylashuvining qadimiy va zich rayonlaridan biri Farg'ona vodiysi uch tomondan Pomir-Oloy, Tyan Shan va Farg'ona tizmalari bilan o'ralgan. Mintaqaning ichki tabiiy-iqtisodiy jihatdan yaxlitligi, sersuv daryo va soylari, mineral resurslari va ishlab chiqarish kuchlarining mujassamlashuvi ko'plab aholi manzilgohlarining to'planishiga asos bo'lgan.

Maydoni uncha katta bo'lmagan vodiya (hududi respublika maydonining atigi 4 foizini tashkil qiladi) mamlakat iqtisodiy-demografik salohiyatining 28,5 va shahar manzilgohlarining 35,1 foizi mujassamlangan. Demak, bu yerda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy zichlik respublika o'rtacha ko'rsatkichidan 7,5 marta ziyod.

Mintaqa hozirda O'zbekiston shahar aholisining 32,5 foizini mujassamlashtirgan holda (jami aholining 28,5 foizi), uning 16,7 foiz yalpi ichki mahsulotini ta'minlaydi.

Shahar aholi manzilgohlari sonining eng ko'p miqdori mazkur (423 ta) hududga tegishli. Mintaqaning shaharlar pramidasi mukammal shakllangan. Binobarin, Farg'ona viloyatining hududiy urbanistik tarkibida uchta katta shaharlar mavjud.

Farg'ona mintaqasi shahar manzilgohlarining zichligi bo'yicha birbiridan keskin farq qilmaydi. Shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning rivojlanish va mujassamlashuv darajasi yuqori; xo'jaligi intensiv yo'nalishga ega, ishlab chiqarish kuchlari yaxshi hududiy tashkil qilingan Farg'ona viloyatida har ming km<sup>2</sup> ga 30,4 ta, hududi kichik Andijonda 20,6 ta, Namanganda 17,2 ta shahar manzilgohlari joylashgan.

Rayon O'zbekiston Respublikasi sanoatini 18,6%, qishloq xo'jalik mahsulotining 26,4 % ini ta'minlaydi; pullik xizmatlarda uning ulushi 16,5%, chakana savdoda 22,3%, tashqi savdo aylanmasida - 16 % ga teng.

Farg'ona viloyati shaharlar to'ri va hududiy tizimini vujudga kelishida gidrografik to'r, tabiiy resurslar, iqtisodiy geografik o'rin, mehnat va infratuzilma salohiyati kabi omillarning ta'siri kuchli. Viloyatdagi shaharlarning ayrimlari qadimdan aholi zich joylashgan qishloqlar o'mida paydo bo'lgan. Farg'ona mintaqasi shaharlar to'ri kengayishi sobiq Ittifoqning dastlabki yillaridan

boshlangan bo'lsa, so'nggi 1989-yilgi aholi ro'yxatidan keyin Muqimiy qishloq aholi punkti shahar tipidagi posyolka maqomini oldi, xolos.

Mintaqa shaharlari turli tarixiy davrlarda tashkil topgan bo'lsa-da, ulami rivojlantirish hamisha davlat boshqamvi diqqat markazida bo'lgan. Chunonchi, foydali qazilma konlari va strategik ahamiyatga ega bo'lgan obyektlar negizida shaharlarni shakllantirish yoki Ikkinchi jahon urushi davrida sobiq Ittifoqning g'arbiy hududlaridan zavod, fabrikalarni ushbu hududga joylashtirilishi maqsadli dasturlar doirasida amalga oshirilgan.

Farg'ona viloyati aholi manzilgohlarining shakllanishida birlamchi omil gidrografik to'r, xususan, Oloy tog'laridan oqib tushadigan daryolar (So'x, Isfara) konussimon deltalari xizmat qiladi. Binobarin, So'x daryosi Qo'qonga, Shohimardonsoy Marg'ilonga hayot bag'ishlagan. Mazkur konussimon yayilmalarda boshqa hududlarda uchramaydigan aholi joylashuvining o'ziga xos shaklini ko'rish mumkin. Masalan, azaldan aholi manzilgohlari nihoyatda zich joylashgan So'x deltasi endilikda o'ziga xos hududiy majmuani hosil qilgan. Shuningdek, Katta Farg'ona, Janubiy Farg'ona va Katta Andijon kanallari, ko'plab irrigatsiya shaxobchalari hamda yo'llar bir-biriga tutashgan aholi punktlarini shakllantirgan. Demak, bundan ko'rinadiki, shaharlarning katta-kichikligi bilan ularning suv resurslari hajmi o'rtasida qonuniy aloqadorlik mavjud.

Shaharlar to'ringing asosi - "sinch"lari sifatida g'arbda Qo'qon va sharqda Farg'ona-Marg'ilon yaqqol ko'zga tashlanadi.

Masalan, Qo'qon shahri shakllanishining o'ziga xos xususiyati, birinchidan, So'x daryosining qadimiy konus yayilmasi bo'lsa, ikkinchidan, vodiyning kengaygan kirish qismida joylashganligi bilan izohlanadi. Ta'kidlanganidek, So'x yayilmasida aholi manzilgohlari nihoyatda zich joylashgan va bu o'ziga xos hududiy majmuani tashkil etadi. Shuningdek, mazkur daryo yotqiziqqlari shaharga yaqin joyda qurilish materiallari sanoati uchun zarur bo'lgan xom ashyo bilan ta'minlaydi. Viloyatda aholi joylashuv tizimi politsentrik, ya'ni asosan ikki markaz - qadimiy Qo'qon va Farg'onada mujassamlangan. Ayni vaziyat ishlab chiqarishning markazlashuvi va shahar manzilgohlarining murakkab tizimi yoki majmuasi - aglomeratsiyalarni vujudga keltiradi.

Qadimiy Qo'qon "ipak yo'lida" Yevropa, Rossiyadan, Hind va Xitoyga "o'tish" yo'lida "savdo shahri" sifatida ham rivojlanib borgan. Manbalariga qaraganda, Qo'qon haqidagi dastlabki ma'lumotlar X asrlarga to'g'ri keladi. Arab sayyohi va geografi Istaxri va Ibn-Xauqol qo'lyozmalarida shaharni "Ho'qand" yoki "Xavokand", ya'ni "go'zal shamol shahri" deya tasvirlaydi. Venger sayyohi H.Vamberi Qo'qon etimologiyasi haqida "Xobkent" go'zal vodiydagi joy so'zidan kelib chiqqan, deya ta'rif bergan.

Dastlab shahar vodiyning g'arbiy qismi uchun muhim savdotransport, harbiy-strategik va ma'muriy funksiyalarga ixtisoslashgan. Kaspiyorti (1898-y.) va Orenburg-Toshkent (1906-y.) temir yo'lining qurilishi uni transport tuguniga aylantirdi. Transport va iqtisodiy geografik o'zining qulayligi, Qo'qon vohasi va qishloq xo'jalik rayonlari markazida joylashganligi uning sanoat ixtisoslashuvini belgilab berdi. Hozirda mazkur yirik shahar negizida Qo'qon aglomeratsiyasi shakllanmoqda. G'arbiy Farg'onada markaziy o'rin tutuvchi ushbu shahardan janubda Yaypan, g'arbda Beshariq, sharqda Uchko'prik va shimolda Dang'ara kabi yo'ldosh shaharlarning vujudga kelishiga "aglomeratsiya yadrosi" asos bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida mintaqaga o'nga yaqin sanoat korxonalarining ko'chirib kelinishi, keyinchalik yangi konlarni ishga tushirilishi, Markaziy Farg'ona hududining o'zlashtirilishi shaharlashuv va sanoatlashuv darajasining birmuncha kuchaytirdi.

1959-1970-yillarda viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi yanada tezlashdi; yirik korxonalar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy infrastruktura obyektlari barpo etila boshladi. 1970-yilga kelib, Farg'ona "katta shahar", Quva shaharcha mavqeyiga ega bo'ldi.

2017-yil 1-yanvar ma'lumotiga ko'ra, viloyatning 206 ta shahar manzilgohlarida 2022,8 kishi istiqomat qiladi. 2009-yil 13-martda "O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroridan so'ng viloyatdagi 196 ta qishloqlarga shaharcha maqomi berildi. Bu respublikada yangi tashkil etilgan qishloq shaharlarining 40 foizga yaqini demakdir.

Shaharlar tizimining murakkablashuvi, ularning ierarxiyasini (pog'onasi) aniqlash, shaharlar o'rtasidagi vazifalarning (funksiyalarni) taqsimlanishiga ham olib keladi. Hudud urbanizatsiyasining o'ziga xos jihati shaharlar zanjirida kichik shaharlar sonining ko'pligi bilan izohlanadi (197 ta). Viloyatda shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning rivojlanish va mujassamlashuv darajasi nisbatan yuqori. Binobarin, har ming km<sup>2</sup> ga 30,4 ta shahar manzilgohlari mos keladi.

Farg'ona viloyati shaharlarining hududiy urbanistik tarkibi, ya'ni katta shaharlar bilan ta'minlanganlik holati yaxshi; hozirda Quvasoy "katta", Rishton "o'rta", ya'ni "ellikminglik" shaharlarga tobora yaqinlashmoqda.

Mustaqillik yillarida Qo'qon va Farg'ona shaharlari sanoati tarmoq tarkibida birmuncha o'zgarishlar sodir boigan: yoqilg'i-energetika sanoatining ulushi ortgan, yengil sanoat ham ustuvor rivojlanib borgan. Shu bilan birga, shahar uchun an'anaviy sanoat tarmoqlaridan biri - to'qimachilik sanoatining ahamiyati pasaygan.

Farg'ona-Marg'ilon va Qo'qon sanoat tugunlari mintaqa sanoatini hududiy tashkil etishda yetakchi o'ringa ega. Farg'ona viloyati hozirgi vaqtda o'zining sanoat ishlab chiqarish salohiyati bo'yicha respublikamizda oltinchi (Toshkent shahri va viloyati, Andijon, Navoiy, Qashqadaryo) o'rinda turadi (2016-yilda - 7,2 %). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvarda "Qo'qon erkin iqtisodiy zonasini tashkil etilishi to'g'risida"gi Farmoni asnosida mintaqada yangi sanoat tarmoqlari va yangi zamonaviy ishlab chiqarish majmualarini tashkil etilishi ko'zda tutiladi.

Ma'lumki, shaharlarning funksional tiplari ularning geografik mehnat taqsimotida tutgan o'mini, umumiy shaharlar tizimidagi xususiyatini aks ettiradi. Agar mamlakat yoki mintaqada shaharlarning funksional tiplari qanchalik xilma-xil bo'lsa, demak, bu hudud yaxshi o'zlashtirilgan va rivojlangan bo'ladi. Viloyat shaharlarining bajaradigan vazifasi, ixtisoslashuvda quyidagi tiplari shakllangan:

- ✓ ko'p funksiyali viloyat markazlari (Farg'ona);
- ✓ ko'p tarmoqli yirik sanoat markazlari (Qo'qon, Marg'ilon);
- ✓ bir yoki ikki sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan shaharlar
- ✓ (Quvasoy, Tinchlik (Hamza), Quva);
- ✓ tuman markazlari va agro-industrial shaharlar (Bog'dod, Beshariq, Dang'ara, Toshloq, Yaypan, Yozyovon, Oltiariq, Rishton);
- ✓ "resurs" shaharlar (Chimyon, Sho'rsuv).

**Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyasi.** Shaharlarning tez o'sishi, xususan, aholisining tez ortib borishi, ular hududining qo'shilib ketishi, shaharlarning murakkab hududiy tizimlarini vujudga keltiradi. Politsentrik Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyasi tarkibida 6 ta shahar (Quvasoy, Tinchlik, Farg'ona, Marg'ilon, Rishton), 5 ta shaharcha (Do'stlik, Oltiariq, Yangi Marg'ilon, Chimyon, Toshloq) va qator qishloqlar bo'lib, bu yerda mintaqaning 30 foizdan ko'proq aholisi istiqomat qiladi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturining «Hududlarni kompleks rivojlantirish, mustahkam va barqaror zamonaviy ishlab chiqarish hamda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish» punktida «Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Qarshi va Nukus shaharlariga tutash 12 ta aholi punktlariga «yo'ldosh shaharlar» maqomini berish orqali 2020-2025 yillarda rivojlantirishga oid chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash» vazifasi belgilangan bo'lib, bu qaror orqali Farg'ona shahriga yondosh hududda yo'ldosh shahar qurish ishlari boshlangan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy siyosat negizida "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Mazkur Taraqqiyot strategiyasining Uchinchi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" bobi 33-maqsadi "Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 baravarga oshirish" deb nomlanadi.

Ushbu maqsadning birinchi xatboshi:

14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko'rsatkichlari «qoniqarsiz» bo'lgan shahar va tumanlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

maqsadning ikkinchi xatboshi:

Hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish. Samarqand va Namangan shaharlarini istiqbolda «millionlik shaharlar»ga aylantirish bo'yicha choralar ko'rish. 450 ming aholiga mo'ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzellarini qurib, foydalanishga topshirish. Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish.

maqsadning uchinchi xatboshi:

Shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi «Shaharlar qulayligi» indeksini joriy etish kabi maqsadlar belgilangan bo'lib, qo'yilgan maqsadlar doirasida shaharlarning yanada rivojlanishiga tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Farg'ona shahrini kompleks rivojlantirish dasturining qabul qilinishi mazkur shahar yangi davrdagi eng katta bunyodkorlik ishlarini boshlab berdi.

Dastlab mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan Farg'ona shahri bosh rejasini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan dasturga binoan O'zbekiston Prezidenti tomonidan 2011-yil 15-noyabrda tasdiqlangan "Farg'ona shahrining bosh rejasini amalga oshirish, 2012-2015 yillarda ijtimoiy va transport kommunal infratuzilmasi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, shaharda 27 kilometr masofadagi ichimlik suvi, 15 kilometr uzunlikdagi elektr va 18 kilometrlik gaz tarmoqlari yangidan tortildi<sup>15</sup>.

2012-yildan to shu kungacha 922-milliard so'm mablag' sarflandi. 110 ta transformator kapital va joriy ta'mirlandi, 11 tasi yuqori quvvatli bilan almashtirildi. 2 ta elektr energiyasi tarqatish punkti qurildi. Natijada 40 ming nafardan ziyod aholining ichimlik suvi, issiqlik va elektr energiyasi ta'minoti yaxshilandi.

Shaharni kompleks rivojlantirish va bunyodkorlik ishlarini takomillashtirish ikkinchi to'lqin mamlakatimiz ikkinchi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borildi. "Bu – oldingi yillarga nisbatan 3 barobar ko'p, degani. Bunda, 2,5 mingta uy-joy og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan yolg'iz ayollar, ehtiyojmand oilalar va nogironligi bo'lgan fuqarolarga beriladi. Shuningdek, kelgusi besh yilda 14 mingdan ziyod oilaga, ipoteka krediti bo'yicha 680 milliard so'mlik subsidiya ajratiladi"<sup>16</sup> – degan edi mamlakatimiz Prezidenti Farg'ona shahriga tashrifi chog'ida.

Shu bilan birga, viloyat hududlaridagi eskirgan 200 ta 2-3 qavatli uylar o'rnida, renovatsiya dasturlari asosida 7-12 qavatli uy-joylar quriladi. Bog'dod tumani Guliston mahallasida barpo qilingan shaharcha namunasi asosida Yozyovon, Oltiariq va Farg'ona tumanlarida ham kamida 4-5 ming xonadonli "yo'ldosh" shaharchalar bunyod etilishi belgilandi.

Qo'qon va Marg'ilon shaharlari qo'shni tumanlar hisobiga kengaytiriladi, 600 gektardan ortiq hududda yirik uy-joy massivlari va sanoat zonalari tashkil qilinadi.

Farg'ona shahrida 300 gektar maydonda 40 ming aholiga mo'ljallangan zamonaviy "Eko shahar" barpo etiladi. Bunda, 25 qavatgacha bo'lgan uylar, ijtimoiy infratuzilma obektlari, 70 gektar maydonda "Yangi O'zbekiston" bog'i bunyod qilinadi.

Shu bilan birga, shaharda har yili 1 milliarddan daraxt ekib, Farg'onaning "yashil shahar" maqomini qayta tiklash, masalasiga ham to'xtalib o'rilgan edi.

### XULOSA

Shaharlar rivojlanishining hududiy geografik jihatlarini taxlil qilish, shaharlar hosil qiluvchi omillarni o'rganish, shaharlashish jarayoni bilan yuzaga keladigan ijtimoiy infrastruktura holatini o'rganish, shaharlar aholisining ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash hududlar maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Farg'ona viloyati shaharlari, xususan Farg'ona shahar ijtimoiy infrastruktura tizimini geografik tahlil qilish quyidagi asosiy xulosalarga kelishga asos bo'ladi.

Shahar hududlarini ijtimoiy infrastrukturasini geografik tadqiq etish zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim. Zero, bunday tadqiqotlarning amaliy yechimlari, taklif va tavsiyalari asosida shaharlar ijtimoiy infrastrukturasini majmuali rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqilishining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Farg'ona viloyati shaharlarining hududiy xususiyatlarini taxlil qilib borish, ularning kompleks rivojlantirishning tizimli ishlarini yo'lga qo'yish hamda shaharlarning ijtimoiy holatini statistik ko'rsatkichlarini qiyosiy taqqoslash, reytingini aniqlash, tip va klasslarga ajratish, prognozini hisobga olish imkonini beruvchi takomillashtirilgan yondashuvlar ishlab chiqish taklif etildi.

Farg'ona shahriga yo'ldosh shahar sifatida barpo etilayotgan Eko shahar loyihasi kelajakda katta ijtimoiy infratuzilmani shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida shaharning yuqori darajada javjmlashuviga, transport oqimiga va shaharni katta istemolchiga aylantiradi.

Yo'ldosh shaharlar ijtimoiy infrastruktura xizmatlari orasida sog'liqni saqlash sohalari hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholining turmush sharoitini belgilovchi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Shaharlarda tibbiy xizmat, transport, servis, ta'lim sohalari katta ehtiyojga ega bo'ladi.

<sup>15</sup> <https://daryo.uz/2015/11/18/fargona-shahri-bosh-rejasini-amalga-oshirish-uchun-tort-yilda-922-milliard-som-sarflandi/>

<sup>16</sup> <https://m.kun.uz/uz/news/2021/09/28/fargonada-40-ming-aholiga-moljallangan-eko-shahar-quriladi-qoqon-va-margilon-kengaytiriladi>

Shaharlarni ijtimoiy infrastrukturaning hududiy tarkibini tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy geografik va ma'muriy-hududiy jihatlariga tayangan holda takomillashtirish dasturi ishlab chiqish lozim. Bunday dasturlarda shaharlar ijtimoiy infrastruktura tizimi statistik ko'rsatkichlarini asosida muntazam qiyosiy tahlillar olib boorish, muammo yuzaga kelgan taqdirda ushbu muammolar yuzasidan manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqish taqozo etiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Ўзбекистон Республикаси аҳоли пунктларининг маъмурий-худудий тузилишини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 21 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 октябрдаги "2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 841-сонли Қарори. <https://lex.uz/docs/4013356>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 декабрдаги ПҚ-4936-сонли "2021-2023 йилларда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори. <https://lex.uz/docs/5188512>.
4. Абдувалиев Ҳ.А. Аҳолининг худудий ташкил этилишини ландшафт омили асосида такомиллаштириш (Фарғона водийси мисолида). Геогр. фан. фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Т., 2020. – 48 б.
5. Алексеев А.И., Ковалев С.А., Ткаченко А.А. География сферы обслуживания. - Калинин, 1988.- 185 с.
6. Атажанов М.М. Совершенствование территориальной структуры системы социальной инфраструктуры в сельской местности // Электронное научно-практическое периодическое международное издание «Экономика и социум», 2021. №7 (86).-С.219-222.
7. Қодиров Р.Б. Фарғона минтақаси аҳолиси ва меҳнат ресурслари (Монография). – Т.: Наврўз, 2016. – 168 б.
8. Федорко В.Н., Курбанов Ш.Б. Типология низовых административных районов Узбекистана по формам сельского расселения // Ўзбекистон География жамятияхбороти. 47 – том. – Т., 2016. – С. 72-80.